

ANDIJON VILOYATINING SANOAT ISHLAB CHIQARISHI

RAQAMLAR:

- Sanoat ishlab chiqarish hajmi **27141,9 mlrd.so'mni** ;
- Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi **21376,6 mlrd. so'mni**, ;
- Iste'mol tovarlarning ja'mi sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi **78,8 %** ni
- Sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi **23,0 %** ni tashkil etdi.

Andijon viloyat bo'yicha 2019 yilning yanvar-oktabr oylarida viloyatimiz korxonalari tomonidan **27141,9 mlrd.so'mlik** sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi* **119,5 %** ni tashkil etdi.

Sanoat mahsulotlarining eng katta hajmi ishlab chiqaradigan (qayta ishlaydigan) korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan bo'lib, o'tgan yilga nisbatan **121,4 %** oshgan, jami sanoatdagi ulushi **97,7** foizni tashkil etdi.

Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar o'tgan yilga nisbatan **92,0 %** ni tashkil etdi, jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi **0,5** foizni tashkil etdi.

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish o'tgan yilga nisbatan **97,3 %** ni, jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi **1,5** foizni tashkil etdi.

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish korxonalari o'tgan yilga nisbatan **166,8 %** oshgan, jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi **0,3** foizni tashkil etdi.

* Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.

Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish tarkibi

**Tog'-kon sanoati va
ochiq konlarni ishlash.**



**Ishlab chiqaradigan
sanoat
(qayta ishlash sanoati).**



**Elektr, gaz, bug' bilan
ta'minlash va
havoni konditsiyalash.**



**Suv bilan ta'minlash,
kanalizatsiya tizimi,
chiqindilarni
utilizatsiya qilish.**



2019 yilning yanvar-oktabr oylarida asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish tarkibi, foizda, jami sanoatdagi ulushi.




***Tog'-kon sanoati va
ochiq konlarni ishlash.***

Tog'- kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi **145,4** mlrd.so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining **0,5 %** ni tashkil etdi.

***Ishlab chiqaradigan sanoat
(qayta ishlash sanoati).***

2019 yilning yanvar-oktabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi **26527,6** mlrd.so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining **97,7 %** ni tashkil etdi.





Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni kondittsiyalash.

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni kondittsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi **400,6** mlrd.so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining **1,5 %** ni tashkil etdi.

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish.

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi **68,2** mlrd.so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining **0,3 %** ni tashkil etdi.



**Viloyatda yanvar-oktabr oylarida yirik sanoat korxonalari tomonidan
ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarilishi**


Ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari	O'lchov birligi	2019 yil yanvar-oktabr oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar	2018 yil yanvar-oktabr oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar
Yengil avtomobillar (ixtisoslashtirilmagan)	dona	170702	121079
Paxtadan yigirilgan ip	tonna	19487,8	17852,0
Akril va vinil polimerlari asosidagi bo`yoqlar va laklar suv va suvsiz muhitda	tonna	2237,2	1718,3
Tabiiy gaz	mln. kub. metr	34,4	27,0
O'simlik yog'i	tonna	10792,6	7511,6

Ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari	O'lchov birligi	2019 yil yanvar-oktabr oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar	2018 yil yanvar-oktabr oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar
Neft	ming tonna	52,9	57,9
Bugdoy uni	tonna	110481	101438
Mashinada yoki qo'lda to'qilgan trikotaj fudbolkalar, maykalar, boshqa kiyiladigon kiyimlar va ish kiyimlari	ming dona	2043,3	1182,2
Alyuminiydan elektr o'ralgan sim, po'lat arqonlar, past kuchlanishdagi kabel, to'kilgan shnurlarva shu kabi buyumlar	tonna	12787,8	9504,3
Aroq – (spirt 100%)	ming litr	650,2	1490,0


Shahar va tumanlarning sanoat ishlab chiqarishi ulushi, %

Andijon viloyatida sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko'p Asaka tumani 61,7 % ulushini, Andijon shahri 15,0 %, Honobod shahri 3,6 %, Andijon tumani 2,7 %, Shahrixon tumani 2,5 %, Baliqchi tumani 2,2 %, Izboskan tumani 1,9 %, Xo'jaobod tumani 1,8 %, Oltinkol tumani 1,7 %, Qo'rgontepa tumani 1,6 %, Jalaquduq tumani 1,4 %, Marhamat tumani 1,0 %, Pahtaobod tumani 1,0 %, tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Shu bilan birga eng kam ulush Ulug'nor (0,6 %), Bo'z (0,7 %) va Buloqboshi (0,9 %) tumanlariga to'g'ri keladi.



*2019 yilning yanvar-oktabr oylarida shahar va tumanlar kesimida jami
sanoat ishlab chiqarish hajmi (mlrd so`m)*




Shuni alohida ta'kidlab o'tish joizki, raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarish bo'yicha yuqori texnologiyali loyihalarni amalga oshirish natijasida, viloyatda 2019 yilning yanvar-oktabr oylarida jami 27141,9 mlrd so`mga teng sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi. Shahar va tumanlar kesimida yuqori hajm Asaka tumanida 16738,9 mlrd so`mni, Andijon shahrida 4058,3 mlrd so`mni, Honobod shahrida 968,2 mlrd so`mni, Andijon

Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish.

Tayyor mahsulotlar turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora - tadbirlar natijasida iste'mol tovarlar ishlab chiqarish hajmi **21376,6** mlrd.so'mni tashkil etdi va 2018-yilning mos davriga nisbatan 33,7 % ga o'sishni ta'minladi, ja'mi sanoatdagi ulushi esa **78,8 %** ga yetdi.

2019 yilning yanvar-oktabr oylarida iste'mol tovarlari

ishlab chiqarish hajmi 21376,6 mlrd.so'm




Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish.

Tayyor mahsulotlar turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida iste'mol mollar ishlab chiqarish tarkibi oziq-ovqat va nooziq-ovqat mahsulotlariga bo'linadi.

Yanvar-oktabr oylarida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmining tarkibi, % da




*2019 yilning yanvar-oktabr oylarida shahar va tumanlar bo'yicha
iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'ati*



Sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning hissasi

Kichik tadbirkorlik sub'ektlari sanoat ishlab chiqarishda keskin faollashgani natijasida ular tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi oshishini ta'minladi, o'z navbatida kichik biznesning jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi esa 23,0 % tashkil etmoqda.


2019 yilning yanvar-oktabr oylarida hududlar bo'yicha yirik korxonalar va kichik biznesning mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi, %



Shahar va tumanlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Buloqboshi tumanida (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 100,0 %), Baliqchi tumanida (99,6 %) va Hojaobod tumanida (93,0 %) va SHahrixon tumanida (94,0 %) tashkil etdi.

Shu bilan birga, eng kichkina ulush Asaka tumanida (2,4 %),

2019 yil yanvar-oktabr oylarida aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi




Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning tabaqalanishi tahlili Asaka tumanida 52065,1 ming so'm, Honobod shahrida 23051,6 ming so'm, Andijon shahrida 9293,1 ming so'm o'rtacha viloyat darajasi ko'rsatkichidan 8788,0 ming so'm yuqoriligini ko'rsatmoqda.

Andijon viloyatida faoliyat yuritayotgan sanoat korxonalari

Bugungi kunda Andijon viloyatida 6618 ta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 2453 tasi (faoliyat yuritayotgan korxonalar umumiy sonining 37,1 %) Andijon shahriga, 798 tasi (12,1 %) Asaka tumaniga va 625 tasi (9,4 %) Andijon tumaniga to'g'ri kelmoqda.

Faoliyat yuritayotgan sanoat korxonalari soni, birlik (2019 yil yanvar– oktabr holatiga)



Andijon viloyatida 2019 yil yanvar-oktabr oylarida yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari

2019 yil yanvar-oktabr oylarida viloyatda jami 1467 ta yangi sanoat korxonalar tashkil etilgan bo'lib, ulardan 384 tasi Andijon shahri, 152 tasi Shahrixon tumani, 168 tasi Asaka tumani, 133 tasi Andijon tumani, 81 tasi Marhamat tumani, 71 tasi Qo'rgontepa tumani, 73 tasi Oltinko'l tumani, 66 tasi Xo'jaobod tumani, 61 tasi Izboskan tumani, 57 tasi Jalaquduq tumani, 50 tasi Baliqchi tumani, 45 tasi Paxtaobod tumani, 44 tasi Buloqboshi tumani, 36 tasi Bo'z tumani va 32 tasi Xonobod tumanlariga to'g'ri keladi.

Faoliyat yuritayotgan sanoat korxonalari soni, birlik

